

EKOLOGIK MUAMMOLAR: GLOBAL TAHDIDLAR VA MILLIY CHORA-TADBIRLAR

Saidova Madinabonu Abduhakim qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik muammolarning insoniyat hayotiga va tabiiy muhitga ko'rsatadigan ta'siri keng yoritilgan. Havoning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, chiqindilar muammosi va biologik xilmaxlilikning yo'qolishi kabi dolzarb muammolar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Ekologiya, atrof-muhit, iqlim o'zgarishi, chiqindilar, suv tanqisligi, global isish, O'zbekiston ekologiyasi, barqaror taraqqiyoti*

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda insoniyat taraqqiyoti tabiiy resurslarning haddan ziyod ekspluatatsiyasi, urbanizatsiya va sanoatlashuv fonida kechmoqda. Bu esa ekologik muvozanat buzilishiga, global iqlim o'zgarishlariga va inson salomatligiga xavf tug'diruvchi holatlarga olib kelmoqda. Ekologik muammolar nafaqat tabiiy muhitga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va sog'liqni saqlash tizimlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekologik muammolarning sabablari.

1. Atmosferaning ifloslanishi va uning oqibatlari

Bugungi kunda havoning ifloslanishi global muammoga aylangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 7 millionga yaqin inson havo ifloslanishi oqibatida vafot etadi. Asosan avtomobil gazlari, sanoat chiqindilari va yoqilg'i yonishi natijasida havo tarkibida SO₂, NO₂, CO va PM2.5 kabi moddalarning ko'pligi kuzatilmoqda. Toshkent shahrida ham qish oylarida havo ifloslanish ko'rsatkichi keskin ortmoqda, bu esa bronxial astma va yurak kasalliklari xavfini oshiradi.

2. Global isish va iqlim o'zgarishlari

So'nggi 100 yil davomida Yerdagi harorat 1,1 °C ga ko'tarilgan. Bu esa Arktika muzliklarining erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va ekstremal iqlim hodisalarining (qurg'oqchilik, to'fon, dovullar) ko'payishiga olib kelmoqda. 2023-yilda Antarktidada muzliklarning eng past darajaga tushgani kuzatildi. Iqlim o'zgarishi

O'zbekiston kabi qurg'oqchil iqlimli hududlarda qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda — suv tanqisligi va hosildorlikning pasayishi bunga misol.

3.Suv resurslarining tanqisligi

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2030-yilga borib dunyo aholisining 40 foizi toza ichimlik suviga muhtoj bo'ladi. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda suv resurslari asosan transchegaraviy daryolarga bog'liq. Amudaryo va Sirdaryo havzalarining ifloslanishi, suvni tejab foydalanmaslik hamda suvni noto'g'ri taqsimlash qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minotida muammolarni keltirib chiqarmoqda

4.Qattiq chiqindilar va plastik tahdidi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyoda 300 million tonnadan ortiq plastik chiqindi hosil bo'ladi, shundan atigi 9 foizi qayta ishlanadi. O'zbekistonda 2024-yilda 7 million tonnaga yaqin qattiq maishiy chiqindi to'plangan. Aksariyati poligonlarda to'planadi, bu esa yer va suv qatlamini zaharlaydi. Aholi o'rtasida chiqindilarni saralash madaniyatining pastligi muammoni kuchaytiradi.

5.Biologik xilma-xillikning yo'qolishi

Yovvoyi hayvonot va o'simlik turlarining kamayishi biosfera barqarorligiga tahdid solmoqda. O'zbekistonda "Qizil kitob"ga kiritilgan tur va navlar soni 300 dan oshgan. O'rmonlarning kesilishi, qurg'oqchilik, daryo oqimlarining kamayishi kabi omillar bu holatni yanada og'irlashtiradi. 2023-yilgi ekologik monitoring ma'lumotlariga ko'ra, Zarafshon va Amudaryo daltalari ekotizimi xavf ostida qolmoqda.

Ekologik muammolarning inson salomatligiga ta'siri.

Atrof-muhitdagi ifloslanish bevosita inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, PM2.5 va PM10 zarrachalari havo orqali o'pkaga kirib boradi va surunkali bronxit, astma, yurak qon-tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har 10 nafar odamdanda 9 nafari ifloslangan havodan nafas oladi. O'zbekistonda ham ayniqsa, qish oylarida ko'mir va gaz yonishidan chiqqan tutun havoda norma me'yordan 2–3 barobar oshadi.

Yosh avlodning ekologik ongini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ko'plab maktablar, oliygohlar va yoshlar tashkilotlari ekologik tadbirlar o'tkazmoqda. Jumladan, "Yashil makon" tashabbusi doirasida maktab o'quvchilari va talabalar daraxt ekish, chiqindilarni yig'ish aksiyalarida faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, ekologik startaplar, masalan, plastikni qayta ishlovchi mini-zavodlar, yoshlar orasida keng tarqalmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar.

Ko‘plab davlatlar ekologik inqirozga qarshi kurashda innovatsion yechimlardan foydalanmoqda. Masalan, Norvegiya 2025-yildan boshlab benzinli va dizelli avtomobillarni to‘liq taqiqlaydi. Yaponiya chiqindilarni 100% saralash tizimiga ega. O‘zbekiston ham xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda “yashil energetika” yo‘nalishiga o‘tmoqda: Nurabod, Buxoro va Qashqadaryoda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. Ekologik muammolarga texnologik yondashuvlar yordamida yechim topish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidanyillarga mo‘ljallangan “Ekologik strategiya” tasdiqlangan. Unga ko‘ra:

2030-yilgacha chiqindilarning 40% qayta ishlanishi kerak;Havo ifloslanishining yo‘l qo‘yiladigan darajasi qat’iy nazorat ostida bo‘ladi; Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish majburiylashtirilgan.

XULOSA:

Ekologik muammolarni hal qilish – bu faqat hukumat yoki ekologik tashkilotlar ishi emas. Bu umumxalq harakati bo‘lishi zarur. Har bir fuqaroning kundalik hayotidagi ekologik mas’uliyati, yashil texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni saralash, daraxt ekish – ularning barchasi umumiy barqarorlikka xizmat qiladi. O‘zbekiston yosh avlodi sifatida ekologik ongimizni oshirish, fan va texnologiyalar orqali ekologik muammolarga innovatsion yechimlar topish bizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) — ekologik ifloslanishning inson salomatligiga ta’siri haqidagi tadqiqotlar.
2. Xalqaro ekologik tashkilotlar (WWF, Greenpeace) — biologik xilma-xillik va chiqindilar muammolari bo‘yicha hisobotlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi — milliy qonunchilik, davlat siyosati va ekologik dasturlar haqida rasmiy ma’lumotlar.
4. Imiy maqolalar va kitoblar — ekologik muammolar va innovatsion yechimlar haqidagi so‘nggi tadqiqotlar